

HARBIY TERMINLARNING TARIXIY-ETIMOLOGIK TAVSIFI

Suyunova Dildora Sadridin qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti (PhD)
dilim2810@mail.ru

Annotatsiya. Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o'rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug'at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g'oyaga ko'ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e'tirof etilsa, ikkinchi ta'limotga muvofiq u adabiy til so'z boyligi tarkibidan ajratiladi, "alohida turuvchi" obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so'zlashuv)ga tenglashtiriladi. Bugungi kunga kelib, kasbiy soha tilini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Biroq, kasbiy sohaga oid til birliklarini mavzu bo'yicha yoki boshqa kichik guruhlar asosida tasniflash tamoyillarini hamda ularga xos alohida tizimlararo munosabat turlarini aniqlash, shuningdek, ushbu til birliklarining o'ziga xos funksional xususiyatlarini belgilashga doir masalalar hanuz o'z yechimini kutmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu sohada mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston tilshunoslari zimmasiga kasbga oid til birliklarini o'rganish va soha atamalarini tizimlashtirish, shuningdek, maxsus soha lug'atlarini tuzish bo'yicha bir qator vazifalar yuklatildi. Harbiy terminologiya mamlakatimizda endigina shakllanish va rivojlanish bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda ingliz, rus va boshqa tillar harbiy terminologiyasini o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Umuman olganda, harbiy obyektning atoqli otlar vositasida ifodalash jarayonida harbiy kasbga doir til birliklarining quyidagi kichik sinflarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Harbiy terminologiya o'ziga xos struktur va leksik-semantik xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: leksika, harbiy termin, eski o'zbek tili, lug'aviy ma'no, etimologiya, o'z qatlam, o'zlashma qatlam.

Аннотация. В структуре современного узбекского литературного языка терминология занимает особое место и обладает значимым статусом. Существуют две основные точки зрения относительно роли терминологии в лексическом составе языка. Согласно первой концепции, терминология признаётся самостоятельным слоем лексики литературного языка, тогда как по второй — она выделяется из словарного состава литературного языка, рассматривается как «обособленный» объект и приравнивается к разновидностям речи (диалекты, жаргон, разговорная речь).

В настоящее время изучение языка профессиональных сфер вышло на новый уровень. Однако вопросы классификации языковых единиц профессиональной сферы по тематическим или иным подгруппам, определения межсистемных отношений между ними, а также выявления их функциональных особенностей всё ещё остаются нерешёнными. В связи с этим с первых лет независимости на узбекских лингвистов была возложена задача изучения профессиональных языковых единиц, систематизации отраслевой терминологии и составления специальных словарей.

Военная терминология в нашей стране, находясь на стадии становления и развития, сегодня привлекает всё больше внимания в плане изучения военной терминологии английского, русского и других языков. В целом военная терминология характеризуется специфическими структурными и лексико-семантическими особенностями, особенно при выражении военных объектов посредством собственных имён, где можно выделить отдельные подгруппы военных языковых единиц.

Ключевые слова: лексика, военный термин, староузбекский язык, лексическое значение, этимология, исконный слой, заимствованный слой.

Abstract. In the structure of the modern Uzbek literary language, terminology occupies a special place and has a significant status. There are two main viewpoints regarding the role of terminology in the lexical system of the language. According to the first approach, terminology is recognized as an independent layer of the literary language lexicon, while according to the second, it is separated from the

vocabulary of the literary language, regarded as a “distinct” object, and equated with types of speech (dialects, jargon, colloquial speech).

Currently, the study of professional language varieties has reached a new stage. However, issues related to the classification of professional language units into thematic or other subgroups, the identification of intersystem relations among them, as well as the determination of their functional characteristics, still remain unresolved. In this regard, since the early years of independence, Uzbek linguists have been assigned the tasks of studying professional language units, systematizing field-specific terminology, and compiling specialized dictionaries.

Military terminology in our country, being in the stage of formation and development, is currently attracting increasing attention in the study of military terminology in English, Russian, and other languages. In general, military terminology is characterized by specific structural and lexico-semantic features, especially in the expression of military objects through proper names, where several subgroups of military language units can be distinguished.

Keywords: *lexicon, military term, Old Uzbek language, lexical meaning, etymology, native layer, borrowed layer.*

Kirish. Turon-u zaminda ajdodlarimiz o‘z davlatlarini barpo etib, o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirdilar. Nafaqat ilm-fan, san’at, madaniyat sohalarida, balki harbiy salohiyatlari bilan ham dunyo xalqlarini lol qoldirgan. Shunday siymolarimizdan biri buyuk xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarga qarshi shiddatli janglarida o‘z jangovorligi bilan mo‘g‘ul sarkardalari va Chingizxonni lol qoldirgan.

XVI asr boshlari eski o‘zbek adabiy tili holatini o‘zida to‘liq mujassam etgan muhim manbalardan biri Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining o‘zbek tilidagi tarjimasidir. “Zafarnoma” hijriy 828- yili (milodiy 1424–1425) fors tilida yozib tugatilgan. Mazkur asarning Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan 1519-yilda amalga oshirilgan o‘zbekcha tarjimasini muhim o‘rin tutadi. Bu tarjimada eski o‘zbek adabiy tilining XVI asrdagi holati, tilning leksik tarkibidagi o‘zgarishlar ham o‘z ifodasini topgan. H.Dadaboyev ushbu asarni lingvistik tadqiq qilish dolzarb masala ekanini ta’kidlaydi. Haqiqatan ham, mazkur asar tom ma’noda XVI asr boshlaridagi o‘zbek mumtoz nasrining buyuk obidalaridan bo‘lib, o‘sha davr til xususiyatlarini o‘rganish uchun juda muhim manbadir.

Adabiyotlar tahlili. “Zafarnoma” asari Amir Temur faoliyati va yurishlari haqida bo‘lgani uchun uning o‘zbekcha tarjimasini leksikasida eski o‘zbek tilida yaratilgan boshqa manbalardagidan farqlanadigan, uslubiy xoslangan, xalq tiliga yaqin harbiy terminlar bor. Bu asarda Navoiy, Bobur va boshqa ijodkorlarning asarlarida uchramaydigan terminlar ham mavjud. Shulardan biri **g‘ajirchi** so‘zidir. Mazkur so‘z mo‘g‘ulcha bo‘lib, aniq ma’nosi “yo‘l boshlovchi”dir. Lekin bu so‘z asarda “bahodur (qo‘mondon)ning qurolini eltuvchi, xizmatkori va urushda egasi bilan birga urushib, uni himoya qiluvchi” ma’nolarini ham ifodalaydi.

Dushman qo‘shini va dushman askari mavzu guruhiga ajratishda, asosan, “dushman” ma’nosini beruvchi so‘zlar, ularning turli tillardan olingan ma’nodoshlarini kiritsa bo‘ladi. Masalan, aduv – arabcha “dushman” demak.

“Zafarnoma”da naft va ra’dandozlar har soridin ishlariga mashg‘ul bo‘ldilar gapidagi naftandoz va ra’dandoz terminlarini olib ko‘raylik. Aslida, ra’d so‘zining lug‘aviy ma’nosi arabcha “momaqaldiraq, chaqmoq” ma’nosini beradi. Ra’d so‘ziga “otish, uloqtirish” ma’nosidagi andoz so‘zini qo‘shish bilan ra’dandoz termini hosil qilingan. Demak, bu yerda momaqaldiraqdek gumburlab portlovchi va chaqmoqdek olovli chaqnovchi demakdir.

“Zafarnoma” leksikasidan o‘rin olgan hirovul, chig‘dovul, jangdovul, yasovul, qorovul, otliv, cherik, piyoda kabi so‘zlar matnda ham harbiy qism, bo‘linma ma’nosini, ham ana shu harbiy qismda faoliyat ko‘rsatuvchi xodim tushunchasini anglatishi bilan o‘ziga xos xarakter kasb etadi. Shuning uchun bu so‘zlar tasnif jarayonida qo‘shin tarkibidagi shaxs tushunchasini ifodalovchi so‘zlar va qo‘shin turlari, harbiy qism, bo‘linmalarni ifodalovchi so‘zlar guruhlarida ham joy olganiga ajablanmaslik kerak. Qo‘shin turlari, harbiy qism, bo‘linmalarni ifodalovchi so‘zlar: burong‘or, o‘ng qo‘l, javong‘or, so‘l qo‘l, g‘o‘l, o‘rta, otliv, piyoda, ilg‘or, qarovul, hirovul, jangdovul, yasovul, qo‘shun, lashkar, cherik, o‘rdu, boshlamish, qo‘shin bo‘yi.

Umuman, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari o‘zbekcha tarjimasi leksikasi tarkibiga nazar tashlash, bu asardagi harbiy leksikaga oid so‘zlarni mavzu guruhlariga ajratishning o‘ziga xos tomonlarini aniqlay olish, ularni mavzu semantik guruhlariga ajratib tahlil hamda tasnif qilish orqali mazkur asarning leksik tarkibida o‘sha davrdagi ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida ro‘y beruvchi jarayonlar asosida hosil bo‘lgan, turli ma’no qirralarini ifodalovchi harbiy leksikaga oid so‘zlar qo‘llangani va bunda asar tarjimonining bayon qilish uslubi, til boyligi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rish mumkin[1]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tarixiy-etimologik, tavsifiy va qiyosiy-tarixiy metodlar qo‘llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida eski o‘zbek tilidagi harbiy terminlar, xususan qo‘shin turlari va askariy qism nomlari tanlab olindi.

Asosiy manba sifatida “Zafarnoma” asarining o‘zbekcha tarjimasi va boshqa eski o‘zbek tiliga oid yozma yodgorliklar tahlil qilindi. Terminlar matndan ajratilib, ularning leksik-semantik va etimologik xususiyatlari o‘rganildi.

Tavsifiy metod terminlarning ma’nosi va qo‘llanishini yoritishda, qiyosiy-tarixiy metod esa ularning turkiy, arab, fors-tojik va mo‘g‘ul tillaridan kirib kelishini aniqlashda qo‘llanildi. Natijada harbiy terminlarning shakllanishi va rivojlanishiga doir umumiy ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tahlillar va natijalar. Quyida eski o‘zbek tilidagi qo‘shin turlari va askariy qism nomlarini bildiruvchi istilohlarning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tamiz:

Askar – arab tilining kuchli ta’siriga qaramay askar istilohi O‘rta Osiyo turkiy tillarida, xususan, o‘zbek adabiy tilida asosan XV asrdan [cherik](#), [sipoh](#), [lashkar](#) istilohlari qatori “qo‘shin, lashkar” ma’nosida keng qo‘llanishda bo‘lgan. XX asr oxirlaridan askar ko‘proq “jangchi, harbiy xizmatchi” ma’nosini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so‘z

askar(un) shakliga ega; o‘zbek tiliga fathali aynni a unlisiga almashtirib qabul qilingan: askar – askar; askara fe’lining “jangovar tarzda joylashdi” ma’nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo‘lib, arab tilida “qo‘shin” ma’nosini anglatadi; o‘zbek tilida bu so‘z “jangchi (soldat)” ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi. Bu so‘z bilan o‘zbek tilida askarboshi so‘zi tuzilgan.

O‘rta asrlarda, xususan, qoraxoniylar, shayboniylar hukmronligi davrida askarlar, ya’ni faqatgina otliqqa ega bo‘lmagan, qurollangan yollanma kishilar (askarlar) qo‘shinning eng muhim qismlaridan biri hisoblangan. Askarlar jang chog‘ida odinda boruvchi vazifasini ham o‘tagan. Keyinchalik askarlar piyoda hamda otliq askarlar guruhiga bo‘lingan. O‘troq aholidan safarbar qilingan piyoda askarlar – *yadag‘*; otliq askarlar guruhi esa *амлык* deb yuritilgan.

Chunki, uning, to‘rt ming otliq va o‘n-o‘n besh ming piyoda askari bor edi, xolos.

Ayg‘oqchi – odamlarning ish-amalini, fikr-o‘yini pinhona bilib olish bilan shug‘ullanuvchi shaxs, josus. Bu so‘z eski o‘zbek tilida “fosh qiluvchi axborot” ma’nosini anglatgan ayg‘aq otidan -chi qo‘shimchasi bilan yasalgan. Hozirgi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan ayg‘aq so‘zi asli qadimgi turkiy tilda “gapir” ma’nosini anglatuvchi ay-fe’lining “takror” ma’nosini ifodalovchi –g‘a qo‘shimchasi bilan hosil qilingan shakliga – q ot yasovchisini qo‘shib yasalgan; keyinchalik so‘z boshidagi a unlisi ä unlisiga, q undoshi oldidagi a unlisi a>unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: [ay- + g‘a = ayg‘a-) + = ayg‘aq] + chi = ayg‘aqchi > äyg‘a > qchi.

Barang‘or – (turkiy)o‘ng, o‘ng taraf degan ma’noni anglatadi. O‘rta asrda avval chingiziylar saltanatida, keyincha Amir Temur va temuriylar davrida qo‘shinlar jangovar tartibi(safi)ning o‘ng tomonida turadigan harbiy qism.

Qo‘shinning o‘ng va so‘l qanotlari – barang‘or, burang‘or va juvang‘or qismlari asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Barang‘arimizni yog‘i burunroq olib tebradi.

Jangchi – bu ot o‘zbek tilida tojikcha “urush” ma’nosini anglatadigan jang otiga –chi qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, “jang qatnashchisi”, “oddiy askar” ma’nolarini anglatadi.

Läuküp – forscha so‘z bo‘lib, o‘rta asrlarda nomuntazam qo‘shin turi; cherik, qo‘shin, armiya. Muntazam armiyasi bo‘lmagan xon va podshohlar harbiy yurish oldidagina o‘ziga tobe viloyatlarga chopar yuborib lashkar to‘plagan. Lashkarga chaqirilgan har bir kishi o‘z oti, quroli va bir oylik oziq-ovqati bilan kelgan.

Amir Temur qo‘shinida turli-tuman viloyat, o‘lka, yurtlardan farmonga ko‘ra yig‘ilgan otliq hamda piyoda jangchilar forscha-tojikcha lashkar o‘zlashmasi bilan anglashilgan.[2.67]

Razmitindin o‘ta tushgoch lashkar,

Dedi sultoni pisandida siyar.

Mirshab – bu ot arabcha amir otining qisqartirilgan mir shakliga “tun” ma’nosini anglatadigan tojikcha shab otini qo‘shib tuzilgan bo‘lib, tarixan “tungi shahar soqchisi” ma’nosini anglatadi.

Navkar – bu ot fors tilida “yosh” ma’nosini anglatadigan (nou, nav) sifati bilan “xizmat” ma’nosini anglatadigan “kar” otidan tuzilgan bo‘lib, “xizmatkor”, “askar” ma’nosini anglatadi.

Hamrohlardan uchta xurosonlik navkar, aniqrog‘i inson suratidagi biyobon jinlari, o‘shanday bir paytda ularning otlarini olib qochdilar va ana shunday bir sharmandalikning tuprog‘ini o‘z nomlari boshidan sochdilar.

Posbon – bu ot tojik tilida “qo‘riqlash” ma’nosini anglatadigan pos otiga –bon qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, “qo‘riqchi”, “soqchi”, “qorovul” ma’nolarini anglatadi. Bu otdan o‘zbek tilida posbonlik mavhum oti yasalgan.

Qo‘shin – Qurolli kuchlar birlashmasi. Bu ot eski o‘zbek tilida “birlashtir” ma’nosini anglatuvchi qosh- fe’lidan –(u)n qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik u unlisi i unlisiga almashgan: qosh- + un=qoshun>qoshin.

Eski o‘zbek tilidagi *қошун* – qo‘shin termini cherig, su istilohlari bilan o‘zaro ma’nodoshlikni kasb etadi. Qo‘shin tarkibi turli davrlarda turlicha tarkibda tuzilgan. Xususan, Bobur qo‘shini tarkibi otliq va piyoda askarlardan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari, Zahiriddin Muhammad Boburning son jihatdan katta bo‘lmagan cherigida o‘t sochuvchi tufak // tufang, miltiq bilan qurollangan tufangandoz, miltiqchi va miltiq otquvchi terminlari bilan anglashilgan askarlar ham xizmat qilgan.[2.67]

Turon qo‘shinlari ham son jihatidan ko‘pligi, ham yalanglikda jang qilishda ulardan botirroq bo‘lganligi uchun lashkarni (shahardan) tahqariga olib chiqishga yuragi dov berasdi.

Sipoh – bu ot sepah shaklida, o‘zbek tiliga tojikcha shakli olingan; asli “lashkar” ma’nosini anglatadi; o‘zbek tilida “piyodadan boshqa shaxmat donalari” ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi.

Turondan Eronga yetmishdir sipoh,

To‘zonidin quyosh ko‘rinmay qolmish.

Soqchi - “qurollangan qo‘riqchi”, “posbon”. Bu ot qadimgi turkiy tilda “ehtiyotkor”, “sergak” ma’nosini anglatgan saq sifatidan –chi qo‘shimchasi bilan yasalgan; o‘zbek tilida a unlisi a>unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yo‘qolgan: saq + chi = sa > qchi.

Yasavul – O‘rta asrda turkiy va mo‘g‘ul xonliklaridagi saroy mansabi. Dastlab, yasa ko‘rsatmalariga asoslangan farmonlarni (hukmdor farmonlarini) ijro etuvchi mansabdor shaxs. Keyinchalik zimmasiga saroyda turli xildagi ma’muriy-siyosiy mayda topshiriqlarni bajarish yuklangan kichik xizmatchi. Manbalarga ko‘ra, yasavullar soliq to‘plash va olingan o‘ljaning xonga tegishli qismini hisoblash bilan ham shug‘ullanganlar. “[Mehmonnomayi Buxoro](#)” asarida aytilishicha, 1509-yil Shayboniyxon Arquqdan

Turkistonning sharqiy tumanlariga tag'or solig'ini yig'ish uchun yasavullar jo'natgan. Shuningdek, Shayboniyxon Hisorda bo'lgan chog'da (1505 yil) yasavullar tushgan o'ljadan xonga tegishli qismini xon qarorgohiga keltirganlar, uni xon farmoniga ko'ra Samarqandga jo'natganlar.

Cherik - (mo'g'. tsereg – askar, jangchi; qo'shin<sansk. ksatrika – qo'shin, lashkar) harbiy yurish vaqtida oily hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig'iladigan muntazam qo'shin.

Amir Qazag'an saflarni yoruvchi cherik bilan Darai Poshton yo'li bilan olg'a yurib Qahdastonga kelib qo'ndi.

O'z qatlam. O'zbek terminologik leksikasining shakllanish manbasi ma'lum va mashhur qadimgi turkiy til (VII-X), eski turkiy til (XI-XIV) va eski o'zbek adabiy tili obidalariga borib taqaladi. Ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy (Dadabayev 1991), harbiy (Dadabayev 1990; 3-83), huquqiy (Tursunova 2009), zoologik (Abdushukurov 1998), kitobat (Yuldashev 2005) va boshqa terminologik leksikaning shakllanish va rivojlanish ibtidosi aynan mana shu yodgorliklardan boshlangan.

Shubhasiz, o'zbek terminologiyasi ilmiy-texnikaviy inqilob davri deb nom olgan XX asrda ham miqdor, ham sifat tomondan jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Bunday o'zgarishlar intralingvistik va ekstralingvistik omillar ta'siri ostida umum o'zbek adabiy tilida sodir bo'lgan jarayonlar yordamida aniqlanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab ko'p sinovli kunlarni, mashaqqatlarni yengib o'tdi. Bugungi kunda milliy armiyamizning faxrlanarli darajada ekanligi ham xalqimizning xotirjamligi, yurtimiz sarhadlarining tinchligi garovidir. Buyuk sarkardalarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi siymolarning munosib davomchilari bo'lgan harbiylarimizning o'rtasida qo'llanilayotgan chet tillardan muqobil variantlarini topish biz tilshunoslar uchun muhim vazifadir. Chunki boshqa davlatlardan yangi terminlarni o'zlashtirib olgandan ko'ra, o'z tariximizga oid terminlardan foydalanmoq va uni yoshlar orasida targ'ib qilmoq ma'qul.

O'zbek xalqi qardosh va qardosh bo'lmagan xalqlar bilan qadimdan aloqada bo'lib kelgan. Shuningdek, tarixiy sabablar bilan bog'liq holda arab, ruslar bilan aloqada bo'ldi. Hozirgi davrga kelib bir qancha xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatgan. Bular o'zbek tili leksikasiga ko'plab so'zlarning o'zlashishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi:

1. *O'z qatlam.*
2. *O'zlashgan qatlam.*

O'z qatlamga umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar kiradi. Umumturkiy so'zlar hozirgi o'zbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi. Umumturkiy so'zlar turli sohalarga oid bo'lib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuyg'u

bildiradigan soʻzlar kiradi. Oʻz navbatida, harbiy sohaga oid terminlar ham tarixiylik jihatdan sof turkiy (oʻzbek)cha boʻlgan soʻzlardan ham iboratdir.

Shuningdek, oʻzbek tili sharoitida oʻzbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan soʻzlar ham bor boʻlib, bunday soʻzlar oʻzbekcha soʻzlar deyiladi. Oʻzbekcha soʻzlar oʻzbek tilining oʻz ichki imkoniyatlari asosida, oʻz qonuniyatlari asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli oʻzbekcha soʻzlarga shu tildagi soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida hosil qilingan soʻzlar: *aygʻoq + chi, boʻl + ak, boʻl + uk, yer + chi, soq/saq + chi*

Boʻluk oʻrta asrlarda shahar, qalʼa mudofaasini taʼmonlovchi harbiy qism hisoblangan. Bu qism askarlari hududni yogʻidan himoya qilgan. Shuningdek, boʻluk oʻrta asrlarda Turkiyada ham qoʻshin tarkibidagi harbiy qism sifatida shakllantirilgan.

2. Boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlarga oʻzbek tilidagi yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshish bilan yasalgan soʻzlar:

a) fors-tojikcha soʻzlardan yasalgan soʻzlar: *dah + cha, didbon + lik/liqʻ, xabargir + lik*

b) arabcha soʻzlardan yasalgan soʻzlar: *foris + lik/liq, eʼlom + chi*

Eʼlom xabarchi maʼnosida kelib, dushman tomonida roʻy berayotgan voqea-hodisalar haqida maʼlumot toʻplab oʻz xoqoniga soʻzlovchi kishi hisoblanadi. Hozirgi kunda elchi deb qarash oʻrinlidir.

Oldilar teva bila otni tamom,

Qildilar shahr eliga eʼlom.

v) moʻgʻulcha soʻzlardan yasalgan soʻzlar: *dorugʻa + lik/liq, jiba + lik/liqʻ, jiba + chi, navkar + lik*

Dedi: “Tanbal sango bir navkardur

Holiyo oʻz boshigʻa sarvardur”.

Oʻzlashma qatlam. Hozirgi oʻzbek tilining lugʻat tarkibiga tarixiy sabablarga koʻra boshqa tillardan koʻplab soʻzlar kirib kelgan. Oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlar oʻzlashgan soʻzlar (olinma soʻzlar) deb yuritiladi. Oʻzlashgan soʻzlar uygʻur, tojik, arab, rus, nemis, fransuz, ispan, ingliz va boshqa tillarga oid boʻladi.

Sinxron tilshunoslik tarafdorlari uchun oʻzlashmalar dastavval, ular kirib borgan tilga koʻrsatgan taʼsiri, uning sistemaviy qurilmasiga leksik jihatdan aloqadorligi, oʻzlashma kelib chiqqan tildagi egallagan maqomi bilan qiziq boʻlgan. Leksik birliklarning oʻzlashishi ikki xalqning iqtisodiy, ilmiy va madaniy jihatdan bir-biri bilan yaqinlashuvi demakdir. Koʻpgina hollarda, oʻzlashma soʻzlarning tilga kirib kelishiga asosiy sabab yangi va ilgari maʼlum boʻlmagan buyum va hodisalarni ifodalash hisoblanadi. Shu bilan birga, oʻzlashmalar avvaldan maʼlum boʻlgan jarayon va narsalarni nomlashda ham keng qoʻllaniladi. Bunday ikkilamchi nomlanish, asosan, quyidagi hollarda amalga oshiriladi: oʻzlashma agar nomlanayotgan predmetning qoʻshimcha xarakteri va qirralarini ochib bersa; agar oʻzlashayotgan soʻz internatsional soʻz yoki

termin bo'lsa; o'zlashma majburiy ravishda biror tilga kiritilsa (asosan harbiy okkupatsiyalar natijasida).

Boshqa tillardan kirib kelgan harbiy termin(qo'shin turlari va askariy qism nomlari)larni quyidagi qatlamlarga bo'lish mumkin:

1. Fors-tojikcha so'zlar: *ajzchi, askariya, asokiri mansura, darbon, dah, daha, didbon, jibador, kamin, kamondor, kamonkash, lashkar, lashkariy, marzbon, nigohbon, novakafkan, novakfikan, novakzan, otashboz, piyoda, posbon, razmsoz, ra'dandoz, rikobdor, savora/suvora, sad, sada, sadajot, sarboz, sinonvar, sipah/sipoh, sipohiy, sipohon, suvar, taxshandoz, tirandoz, tirafkan, tirzan, tirkashband, tufangandoz, farangiboz, forisona, xabargir, xoraandoz, xoraafkan/xorofikan, chah/chohnigahboni, chuhra, qadarandoz, qadargir, qalbgoh, qodirandoz, qoruraafkan, hazora, hazorajot.*

Bobur cherigida Yevropa uslubida quyilgan to'pni boshqaruvchi to'pchi, zambarakchi farangiboz istilohi bilan atalgan bo'lib, keyinchalik ko'zga tashlanmaydi.

2. Arab tilidan o'zlashgan so'zlar. Arabcha so'zlar o'zbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan bog'liq: *asas, askar (asokir), jaysh(juyush), josus, jund(junud), zobit, maymana, maysara, makman, munodiy, muqaddima, muhorib, muhofiz, soqa, taloya, foris, yamin, yasor, qalb.*

Makman, ya'ni pistirma jang chog'ida dushman qo'shinini kutilmagan yerdan hujum qilib g'alabaga erishish yo'li hisoblanib, Bobur o'z qo'shinining g'alabasini ta'minlashda ushbu usullardan unumli foydalana olgan.

3. Mo'g'ulcha so'zlar: *arg'adal, barang'ar/burang'ar, birqal, boshchi/bashchi, burang'a, dapqur, juvang'ar, keshik, manglay, mergan, navkar, sudar/savdar, to'sqal, chandavul, chag'davul, chingdavul, shaqavul, eravul/iravul, qo'l, qo'shun, g'ajarchi/qacharchi, hiravul, cheri/cherig/cherik.*

O'qchilar safida o'qni mo'ljalga bexato uradigan mohir jangchilar bo'lib, ular har doim e'zozlangan va ehtiyot qilingan. Bunday mohir yoy, tufang va miltiq otuvchilar aksariyat mo'g'ul tilidan kirib kelgan mergan istilohi yordamida anglashilgan.

Qo'qon xonligida miltiq bilan qurollangan, quyi harbiy rutabaga ega jangchi mergan deb yuritilgan.[2.87]

5. Xitoy tilidan o'zlashgan so'z: jang.

Xulosa. Eski o'zbek tilidagi qo'shin turlari va askariy qism nomlarini ifodalovchi terminlarning funksional-semantik tahlili natijasida ularning lug'at tarkibidagi o'rni, ma'noviy qirralarini batafsil ochib berishda terminlarni kichik leksik-semantik guruhlariga bo'lib o'rganish qulayroqdir. Zero, bunda termin qanday holatlarda ishlatilishi aniq ko'rsatilishi mumkin. Ichki va tashqi omillar ta'sirida voqelangan, umumadabiy so'z boylikning sezilarli qatlamlaridan hisoblangan harbiy terminologiya eski o'zbek adabiy tilining shakllanish xususiyatlarida o'z aksini topadi. Shuningdek, qo'shin turlari va askariy qism nomlarini bildiruvchi terminlarni tarixiy-etimologik jihatdan tavsiflab, o'z

hamda o‘zlashma qatlarga oid terminlarning kelib chiqish etimologiyasini o‘rganish muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarining o‘zbekcha tarjimasidagi harbiy leksikaga oid so‘zlarning mavzuiy-semantik guruhlari haqida.
2. Dadaboyev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – Toshkent., 2020. – 67 b.
3. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. (2008). O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.
4. Abdushukurov B. (2015). Eski turkiy til leksikasi. Tafakkur Bo‘stoni. – T. Dadaboyev H. (2019). O‘zbek terminologiyasi. – T.

